

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**3-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.O.Ikromova Chingiz Aytmatovning “Alvido, Gulsari” qissasi nutq shakllarini tarjima qilishning psixolingvistik xususiyatlari	128
Ш.М.Артикова Сопоставление стратегий вежливости и культурных установок в англосаксонском и узбекском семейном дискурсе.....	136
G.A.Komilova Siyosiy nutqlarda ishontirish strategiyalarining lingvistik tahlili.....	145
M.T.Ikromov Botanik terminlarning etnomadaniy tadqiqi.....	149
U.H.Usmonova O'zbek, rus va ingliz tillaridagi fe'l frazeologik birliklarning struktur-semanatik va lingvokulturologik tadqiqi	154
U.M.Askarova Gapda uyushiq bo'laklarning o'rni va ahamiyati (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida).....	158
Sh.Kh.Sayidov, N.M.Nabijonova The intersection of paralinguistics and sociolinguistics.....	163
M.Y.Mamajonov, F.A.Bekmuxamedova Inglizcha va o'zbekcha maqollar asosida lingvokognitiv tahlil	166
Sh.Sh.Dadabayeva Aksiolingvistikadagi asosiy jarayonlar	171
Sh.Sh.Dadabayeva Axloqiy-fuqaroviy qadriyatlarni ifodalovchi aksiologik leksikalar tadqiqi	175
L.T.Galimullina, K.M.Akramova The semantics of verbal phraseological units and their evaluative emotive peculiarities in the English and Russian languages	179
X.A.Baymanov, M.M.Soatova Hajviy matnlarni tarjima qilishning kognitiv-pragmatik xususiyatlari	184
Sh.R.Karimjonova Kognitiv tilshunoslik: asosiy yondashuvlar va tushunchalar	188
L.T.Galimullina, N.F.Salakhutdinova Some issues in the antonymy of phraseological units in the english language	195
Р.Сулейманова Историческая лексика тюркских языков: морфосемантическое и этимологическое исследование корневых слов	199
A.Sh.Mukhamadiev Aggression as a form of speech influence in the literature of the uzbek and english languages ..	203
S.Z.Hemidli Metaphorization in the mythological lexicon of english and azerbaijani languages (comparative-historical typological linguistics).....	209
X.U.Qodirova Nutqiy etiket va milliy-madaniy identikasiya: ingliz tili konteksti misolida	215
Д.Б.Хамидова Влияние языка на формирование специализированной терминологии	218
G.A.Zaynutdinova O'zbek tilshunosligida lingvopoetika umumfilologik yo'nalish sifatida	222
R.Kahramanova Lexical and grammatical features of kinship terms in azerbaijani dialects	227
A.M.Aimuxammetova Ingliz va qoraqalpoq tilshunosligida numerativ birliklarning o'rganilish tarixi	231
N.Q.Adamboyeva Non-traditional language learning methods and brain activity	234
D.S.Usmonova, N.R.Rajabova Ingliz tili o'rganishda gamifikatsiya: motivatsiya va faollikni oshirish	237
M.T.Raxmonqulova Tilshunoslikda “Konsept” va “Konseptosfera” tushunchalari talqini	241



UO'K:170.4

AKSIOLINGVISTIKADAGI ASOSIY JARAYONLAR

ОСНОВНЫЕ ПРОЦЕССЫ В АКСИОЛИНГВИСТИКЕ

MAIN PROCESSES IN AXIOLINGUISTICS

Dadabayeva Shirinxon Shuxratovna 

Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada aksiologiya va aksiolingvistika sohasidagi asosiy jarayonlar – aksiologiya, baholash va darajalanish – keng qamrovli tahlil qilinadi. Tadqiqot tilning qadriyatlarini ifodalashdagi o'ziga xos o'rniga e'tibor qaratib, uning semantik va stilistik xususiyatlari, shuningdek, kontekstual o'zgarishlarini aniqlashga qaratilgan. Maqolada tahlil va komponental usullar qo'llanilib, pragmatika, stilistika va sotsiolingvistika kabi interdisiplinar yondashuvlar asosida aksiologik jarayonlarning ifoda mexanizmlari o'rganilgan. Maqola davomida baholash jarayonining aksiologik so'zlardan farqi, darajalanish jarayoni bilan o'zaro bog'liqligi va tilning baholash mazmunini ifodalashdagi roli batafsil tahlil etiladi. Tadqiqot shuni isbotlaydiki, baholash va darajalanish jarayonlari tilshunoslikda qadriyatlarini o'lchash va ularning iyerarxik tuzilishini aniqlashda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, tilning qadriyat ifodalanishi jamiyatdagi madaniy, ijtimoiy va ideologik tuzilishlarga mos ravishda shakllanib boradi. Ushbu maqola nafaqat tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasini boyitishga, balki tilning ijtimoiy-madaniy hayotdagi o'rnini yanada chuqurroq tushunishga ham xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun yangi nazariy yondashuvlar va tahlil usullarini belgilab beradi, shuningdek, tilning qadriyatlarini ifodalash mexanizmlarini o'rganishda interdisiplinar metodlarning ahamiyatini ko'rsatadi.

Аннотация

В данной статье проводится всесторонний анализ основных процессов в области аксиологии и аксиолингвистики – аксиологии, оценки и ранжирования. Исследование направлено на изучение уникальной роли языка в выражении ценностей, его семантических и стилистических особенностей, а также контекстуальных изменений. В статье используются методы анализа и компонентного подхода, а также междисциплинарные подходы, такие как прагматика, стилстика и социolingвистика, для изучения механизмов выражения аксиологических процессов. В статье подробно анализируется различие процесса оценки от аксиологических слов, его взаимосвязь с процессом ранжирования и роль языка в выражении оценочного содержания. Исследование доказывает, что процессы оценки и ранжирования служат основными инструментами для измерения ценностей и определения их иерархической структуры в лингвистике. При этом выражение ценностей через язык формируется в соответствии с культурными, социальными и идеологическими структурами общества. Данная статья служит не только для обогащения теории и методологии лингвистики, но и для более глубокого понимания роли языка в социокультурной жизни. Результаты исследования определяют новые теоретические подходы и методы анализа для будущих научных изысканий, а также демонстрируют значимость междисциплинарных методов в изучении механизмов выражения ценностей через язык.

Abstract

This article presents a comprehensive analysis of the main processes in the fields of axiology and axiolinguistics – axiology, evaluation, and ranking. The research focuses on the unique role of language in expressing values, examining its semantic and stylistic features as well as identifying contextual changes. Analytical and componential methods are applied in the study, along with interdisciplinary approaches from pragmatics, stylistics, and sociolinguistics to explore the mechanisms of expressing axiological processes. The article provides a detailed analysis of the differences between the evaluation process and axiological terms, their interrelation with the ranking process, and the role of language in expressing evaluative content. The study demonstrates that the processes of evaluation and ranking serve as the primary tools in linguistics for measuring values and determining their hierarchical structure. At the same time, the expression of values through language is shaped in accordance with the cultural, social, and ideological structures of society. This article not only enriches the theory and methodology of linguistics but also contributes to a deeper understanding of the role of language in socio-cultural life. The research findings establish new theoretical approaches and analytical methods for future scientific investigations and highlight the importance of interdisciplinary methods in studying the mechanisms of expressing values through language.

Kalit so'zlar: Aksiologiya, aksiolingvistika, baholash jarayoni, darajalanish jarayoni, semantic ma'no, baholash nazariyasi, implicit baholash, eksplisit baholash.

Key words: Axiology, Axiolinguistics, Evaluation Process, Ranking Process, Semantic Meaning, Evaluation Theory, Implicit Evaluation, Explicit Evaluation.

Ключевые слова: Аксиология, аксиолингвистика, процесс оценки, процесс ранжирования, семантическое значение, теория оценки, неявная оценка, явная оценка.

KIRISH

Aksiologiya fani faqatgina qadriyatlarni emas, balki ularni aniqlash va baholash haqidagi fan hamdir. Baholash aksiologiyaning marakaziy jarayonlaridan biri. Masalan, “*adolat*” aksiologik tushuncha bo‘lib, u yuqori bahoga ega. Aynan ushbu tushunchaning yuqori baholanishi baholash jarayoniga misol bo‘ladi.

Demak, baholash aksiologik natija bo‘lib, u obyektiv yoki subyektiv bo‘lib, narsa, hodisa va tushunchalarning qiymatini berish orqali amalga oshadi.

Baholash haqida gap ketganda, albatta, darajalanish haqida ham so‘z yuritiladi.

Tushuncha	Mazmuni	Asosiy savollar	Misol
Aksiologiya	Qadriyatlarni falsafiy o‘rganish	Nega bu narsa qadrlı? Qadriyatlar qanday shakllanadi?	"Halollik barcha jamiyatlar uchun muhim qadriyatmi?"
Baholash	Obyektga yoki hodisaga qiymat berish	Bu narsa qanchalik yaxshi yoki yomon?	"Ushbu film juda ma'noli va ta'sirli."
Darajalanish	Obyekt yoki hodisalarni tartibga solish	Qaysi biri eng yaxshisi? Ular qanday navlarga bo‘linadi?	"O‘zbekistondagi eng yaxshi universitetlar reytingi"

Darajalanish baholash jarayoni bo‘lib, u qadriyatlarni muayyan bir meyorlar bilan tartibga soladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkin, aksiologiya, baholash va darajalanish o‘zaro farqlanuvchi ammo bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lgan tushunchalardir.

Darajalanish qadriyatlarni muayyan mezonlar asosida tartibga soluvchi va ularni iyerarxik tomondan baholovchi jarayondir.

Uning aksiologingvistikaga aloqadorligi quyidagi faktorlarga bog‘liq:

- darajalanish qadriyatlar qatorida narsa-hodisa va tushunchalarni qay biri eng muhim ekanligini ko‘rsatadi;
- turli me‘yorlar (axloqiy, madaniy, diniy kabi)ni baholash darajalanish orqali amalga oshadi;
- darajalanish aynan shaxsiy qadriyatlar bilan jamiyat qadriyatlar orasidagi muvozanatni saqlaydi;
- barcha qadriyatlarni o‘lchash va qiyoslashda darajalanish muhim

Yuqoridagi barcha faktorlarning tildagi ifodasini aksiologingvistika fani tahlil qiladi.

Aynan aksiologiya, baholash va darajalanish aksiologingvistikaning o‘rganish obyekti hisoblanadi.

Ta’kidlanganidek, aksiologiya qadriyatlar va ularni baholash haqidagi ta’limotdir. Tilshunoslik jihatdan aksiologiya qadriyatlar, ularni baholash va ularga munosabat bildirishning tildagi ifodasidir. Shu sababdan ham, tilshunoslikning aksiologiya sohasiga bog‘liqligini o‘rganishda ko‘proq baholash mazmuniga urg‘u beriladi.

Dastlab, tilshunoslikda til qadriyatga neytral emasligi tan olingan. Xususan, zamonaviy tilshunoslikda semantic ma’noni farqlovchi aksiologik baholash mezon mavjud[3;24]. Masalan, “*tejamkor*” va “*ziqna*” kabi so‘zlarning ikkisi ham tejamkor insonga nisbatan qo‘llaniladi, ammo biri ijobiy, ikkinchisi esa salbiy ma’noda qo‘llaniladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

XX asrda tilshunoslikda baholash jarayonining ahamiyati yanada kuchaydi. Xususan, S.Osgudning *semantic differentsial* deb nomlangan nazariyasida aynan baholashning eng muhim semantic jihatdan farqlovchi vosita sifatida ko‘rsatadi[4;475-484]. V.Krzasoskiy esa aksiologiyani semantic baholash kaliti sifatida ko‘rsatadi va *good is up, bad is down*(yaxshi yuqori, yomon past) kabi konseptual metaforalarga urg‘u beradi[5]. Aynan, ushbu olimlarning ishlarida baholashning aksiologiyadagi ahamiyati turli misollar asosida tahlil qilinadi.

J.R.Martin va R. Vayt *baholash nazariyasini* yaratgan[6]. Bu esa diskurs tahlilda foydalanadigan eng asosiy yondashuvlardan biri hisoblanib, bunda baholash mazmunidagi

TILSHUNOSLIK

so'zlarning tasdiq, munosabat yoki daraja belgisi sifatida kelishini aniqlashga yordam beradi. Dastlab ushbu yondashuv ingliz tiliga, keyinchalik boshqa tillarga ham tatbiq etilgan. Hozirgi kunda ushbu yondashuv aksiologik tilshunoslikda foydalaniladigan asosiy diskursiv usuldir. Ushbu usulning asosiy maqsadi shaxsning qadriyatlarga-borliqqa munosabati va bahosini ifodalashdir.

S.Hanston va J.Tomson tomonidan diskursdagi baholash nazariyasiga asoslangan holda baholash jarayonining implisit va eksplisit turlari o'rganiladi[3]. Ular qadriyatlarning tildagi ifodasining dinamik xususiyatlarini korpus lingvistika, pragmatika va stilistika sohalari asosida tahlil qiladi.

A.Bourmayan aksiologik konnotatsiyana o'rganadi va baholash jarayonini semantika va pragmatika asosida o'rganib chiqadi. Xususan, qadriyatlarni ifodalovchi so'zlarning barqaror(semantik) bo'lishi yoki kontekstga bog'liqligini misollar bilan tahlil qiladi. Masalan, u *propaganda* so'zi barqaror yoki kontekstga bog'liqligini turli sabablar bilan o'rganadi[1;1-29].

E.Serebrennikova tilni baholovchi vosita ekanligini aytadi. U so'zlarni esa biz uchun nima to'g'ri va nima muhimligini ifodalovchi birlik sifatida ko'radi. Olimning fikriga ko'ra baholash va qadriyat mazmunidagi so'zlarning ma'nosi va ulardan foydalanish usullarining o'zgarishi jamiyatning rivojlanishiga bog'liq. Bu jarayon esa tilning ijtimoiy-madaniy hamda siyosiy hayotga bog'liqligini ko'rsatadi. Olim boshqa olimlar bilan hamkorlikda ta'lim, siyosatga oid so'zlarni har kungi muloqotda kelishini va ularni qadriyatlarni ifodalashini misol tariqasida o'rganadi[9]. Olimlarning fikricha "*baho(qadriyat)*" universal tushuncha, ammo uning tildagi ifodasi turli madaniyatlarda har xil. Aynan ushbu har xillikni o'rganish aksiolingvistikaning o'rganadigan eng muhim masalalardan biridir.

O'zbek tilshunosligida aynan baholash jarayoniga oid ilmiy ishlarni uchratish mumkin. Masalan, R.Qo'ng'irov o'zining ilmiy qarashlarida subyektiv baho to'g'risida so'z yuritadi[7;3-21]. Ya'ni, olim Grammatik vositalarning stilistik xususiyatlaridan kelib chiqib subyektiv baho berish, ushbu vositalarning kontekstda kelib chiqib farqlash va foydalanish masalalarini tadqiq etadi. Olim misol tarzda quyidagi misollarni ko'rsatadi:

"Menga bajardi" va *"men uchun bajardi"*


Ikkisi mazmunan bir xil, ammo turli semantic mazmunga ega gaplardir. Birinchisi shaxsiy munosabat bo'lsa, ikkinchisi rasmiy mazmunda kelmoqda. Qaysi biridan foydalanishi so'zlovchining o'z bahosiga bog'liq. Aynan so'zlovchining his-tuyg'ulari, qarashlari va qiymatlari aynan shu kabi Grammatik-stilistik vositalar orqali amalga oshiriladi. Bu esa aksiologiyaga bog'liqdir. So'zlovchi o'zining subyektiv bahosi bilan o'z dunyoqarashi, qadriyatlarini naoyon etadi. Nutqda Grammatik va stilistik vositalardan foydalanib o'zining dunyoqarashini ifodalash baholash jarayoni bo'lib, bu aksiolingvistikaning o'rganish obyektidir.

Shu kabi ilmiy ishlardan biri O.Bozorovning tilda darajalanish hodisasiga oid ilmiy qarshlaridir. Olim o'zining tildagi lisoniy darajalanish hodisasi orqali til elementlarining umumiy va xususiy jihatlari, til birliklarining o'zgarib turishi, ularning o'zaro bog'liq va qarama-qarshi bo'lishi to'g'risida fikrini berib o'tgan. O.Bozorovning darajalanish hodisasida tilning miqdoriy o'zgarishlari sifatga aylanishi va umumiy hamda xususiy jihatlarning tahlili faqat Grammatik-leksik tomondan emas, balki so'zlovchining o'z qarashlari – qadriyatlaridan kelib chiqib ko'rsatiladi[2]. Bu esa baholash jarayonining tildagi ifodasi hisoblanadi. Undan tashqari, oilmning dialektik metodologiyaga yondashuvi tilning ijtimoiy, madaniy va estetik qadriyatlarini aks ettirishini tushuntirish uchun ham foydalidir. Masalan, *iliq, issiq, qaynoq* kabi so'zlarda darajalanish mavjud va ulardan foydalanish so'zlovchining hissiy sezgirligiga bog'liq tarzda ifodalanishi haqida fikr yuritiladi. *Iliq* leksemasi ko'proq ijobiy holatda, *qaynoq* esa xavfli, salbiy holatlarda ishlatiladi. Demak, so'zlovchining qaysi so'z tanlashi – baholashi uning qadriyati va madaniy-ijtimoiy normativlariga mos kelishi bo'lib, bu jarayon ham aksiolingvistikaning dolzarb masalalaridan biridir.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ushbu maqolada aksiolingvistikadagi asosiy jarayonlar – aksiologiya, baholash va darajalanish – chuqur tahlil qilinib, ularning tilning qadriyatlarni ifodalashdagi o'рни va jamiyatning madaniy-ijtimoiy hayotidagi ahamiyati aniqlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, *Baholash* jarayoni so'z va iboralarga berilayotgan qadriyatni ifodalaydi, ularning semantik va stilistik xususiyatlari orqali ijtimoiy, madaniy va ideologik kontekstlarda qanday aks etishini ko'rsatadi. *Darajalanish* esa qadriyatlarni iyerarxik tartibga solish, ularni o'lchash va qiyoslash imkonini beradi,

shu bilan tilning qiymat tizimidagi o'zaro munosabatlarni yoritadi. Tilning aksiologik mazmuni faqat lingvistik xususiyatlarga emas, balki jamiyatning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarga ham chambarchas bog'liq ekanligi isbotlandi.



XULOSA

Maqola asosida aniqlanadiki, til har doim neytral emas va uning semantik, stilistik xususiyatlari orqali shaxsiy va jamiyatning qadriyatga bo'lgan munosabatlari aks etadi. Aksiolingvistikadagi baholash va darajalanish jarayonlari tilning ijtimoiy-madaniy, ideologik va falsafiy jihatlarini aks ettiruvchi muhim mexanizmlarga aylangan. Ushbu tadqiqot kelgusida tilning qadriyatlarni ifodalash jarayonlarini yanada kengroq o'rganish, shuningdek, madaniy-ijtimoiy o'zgarishlarning tilga ta'sirini chuqurroq tahlil qilish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bourmaman A. Axiological connotation and the semantic-pragmatic distinction. // Lexis. №21. 2023. – P. 1-29.
2. Bozorov O. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent, 2023. – 164b.
3. Hunston, S., Thompson, G. Evaluation in Text: Authorial Stance and the Construction of Discourse. Oxford University Press. – UK, 2000. – 238p.
4. Hurtienne J. Physical gestures for abstract concepts: Inclusive design with primary metaphors. // Interacting with computers. – UK, 2010. – P. 475-484.
5. Krzeszowski T.P. Angels and Devils in Hell: Elements of Axiology in Semantics. Wydawnictwo Energeia. – Warszawa, 1997. – p. 298.
6. Martin J.R., White P.R. the language of evaluation Appraisal in English. – London, 2007. – 278p
7. Qo'ng'urov R. Subyektiv baho formalarining semantic va stilistik xussiyatlari. – Toshkent, 1980. – B.3-21.
8. Thompson G., Juez L.P. Evaluation in Context. – Madrid, 2014. – P. 3-24.
9. Серебренникова, Е.Ф., et al. Лингвистика и аксиология: этносемиотрия ценностных смыслов. – Москва: ТЕЗАУРУС, 2011. – С.352.